

ALISHER NAVOIYNING IJOD YO'LI VA XAMSA ASARIHAQIDA

Toshtemirova Ozoda No'mon qizi

O'qituvchi: Atabayeva Go'zal

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti Navoiyshunoslik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7828077>

Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahrisabzlik turkiy qabilalar avlodidan bo'lgan Xusrav Dehlaviy (1253— 1325) o'zining "Xamsa"sini 1299—1301- yillarda yozib tugalladi. U "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat"), "Oyinayi Iskandariy" ("Iskandar oynasi") 60 dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi. Shunga ko'ra asar "Xamsa" deb atalishi uchun: a) besh dostonidan tashkil topmog'i; b) birinchi doston, albatta, pandnasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmog'i; d) ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanmog'i; e) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i; f) to'rtinchi doston shoh Bahrom va beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart edi.

Betarkror shoir asari "xamsa" 5 dostonidan iborat. "Hayrat ul-abror" ("Yaxshilar hayrati"), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor" ("Yetti sayyora"), "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") dostonlari.

"Lison ut-tayr" — Alisher Navoiyning so'nggi dostoni "Xamsa"dan 14 yil keyin — 1498—99 yilda yaratilgan. Bu asarini shoir "Foniy" taxallusi bilan yozgan. Chunki bu davrda uning hayoti keksalikka yuz o'g'irgan, aniqrog'i, bu dunyosidan ko'proq u dunyosini o'ylay boshlagan edi. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigani — Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qushlar tili") dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, "tarjima rasmi bila" yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. "Lison ut-tayr" aruzning ramali musaddasi maqsur (foilotun — foilon) vaznida yozilgan bo'lib, 3598 baytdan iborat. Dostondagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalaridir. Alisher Navoiyning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og'ir sinovlardan o'tkazib, komil inson darajasida ko'rish. Shoir asarda qushlar timsolida tasavvuf yo'liga kirgan va Allohni ko'rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan xudojo'y insonlarni tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so'ylangan yuzlarcha hikoyalar tasavvufiy mazmunda bo'lib, ular hammasi hayotiy, biri biridan qiziqarli. Qushlarning rang-barang timsollari orqali Alisher Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarini, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligini majoziy uslub bilan, ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlagan. Tasavvufning vaxdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan. Bu bilan Navoiy tasavvuf g'oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy kurkam va jonli yetkazishda oliy darajada san'atkorlik ko'rsatgan.

Hukmdorlarga bag'ishlangan "Salotin bobida" nomli uchinchi maqolat adibning adolat haqidagi qarashlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Maqolatda shoirning tenglik, ozodlik, adolatli jamiyat borasidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, mamlakatda juda ko'p narsa davlat boshlig'iga bog'liq. Shoh odil, oqil, orif va el-yurtga g'amxo'r bo'lishi kerak. Shuning uchun shoir shohga qarata: raiyat (xalq) poda bo'lsa, sen cho'ponsan, u mevali daraxt bo'lsa, sen — bog'bon, agar cho'pon qo'ylarini asramasa, ular och

bo‘rilarga yem bo‘ladi. Podani bo‘rilardan asra, bog‘ni suv berib yashnatgin, deydi. Hukmdor kim bo‘lmasin, mamlakat va xalqning taqdiri uning faoliyati, xatti-harakatiga bog‘liq:

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuv mulkni obod etar.
Kofiri odil ani obod etib,
Mo‘mini zolim ani barbod etib.

Keyingi maqolatda odob masalalari yoritilgan. Adib unda kishilar bilan munosabat va muomala madaniyati, o‘zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bildiradi. Odob, tavozeni alqaydi, o‘zini tuta bilmaslik, o‘rinsiz kulgi kabi salbiy xislatlarni qattiq qoralaydi. Inson munosabatlarda har bir kishining ahvoliga yarasha muomala qilishi, kattalarga xizmat, kichiklarga shafqat etishi lozim deb uqtirgan shoir: “Har kishining tavig‘a loyiq kerak, Surati holig‘a muvofiq kerak. Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak, Ulki kichikroq, anga shafqat kerak”, deb ta‘lim beradi. Tanosub san‘ati asosiga qurilgan quyidagi satrlarni esa har bir farzand o‘ziga dasturi amal deb bilishi kerak:

Boshni fido ayla ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Maqolatlardan birini Navoiy elga manfaat yetkazish masalalariga bag‘ishlaydi. Insonning hayoti jamiyatda, odamlar orasida kechadi. Shuning uchun haqiqiy inson yurt tashvishi bilan, el g‘ami bilan yashaydi:

**Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidan g‘ami.**

Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta‘rif va tavsif berar ekan, fikrni go‘zal va nafis badiiyat libosiga o‘rab, o‘quvchiga taqdim qiladi. Uni o‘qir ekansiz, ifoda go‘zalligi Sizni maftun qiladi, so‘zlar jilosidan adibga tahsinlar o‘qiysiz. Birinchi dostonida tilga olingan mazkur mavzular, masalalar keyingi qissalarda (dostonlarda) o‘ziga xos tarzda va talqinlarda bir-biridan go‘zal va teran qissalar orqali kitobxon ongi va shuuriga yetkaziladi. “Xamsa” — Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda millatimiz tafakkur ko‘lami hamda ma‘naviy qudratining timsoli. Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimiz g‘ururi, sha‘n-u sharafigi dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa”. Chunki Navoiyni bilish o‘zlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.

References:

1. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 3- nashri. /Qozoqboy Yo‘ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshibekov; [Mas‘ul muharrirlar: V.Rahmonov, K.Usmanova]. —T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. — 200 b.
2. Шеркузиева, Г. Ф., Ф. И. Саломова, and Ф. У. Юлдашева. "РЕЗУЛЬТАТЫ САНИТАРНО-ХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВОДЫ." (2023).

3. Абдукадирова, Л. К., Ф. У. Юлдашева, and М. Р. Мирсагатова. "Анализ Изучения Состояния Организации Здорового И Доброкачественного Питания В Детских Дошкольных Учреждениях." (2022).
4. Юлдашева, Фируза. "Совершенствование работы мобильных бригад в амбулаторно-поликлинических учреждениях системы железно-дорожного транспорта в условиях пандемии COVID-19 в Республике Узбекистан." Международная научно-практическая конференция «COVID-19 и другие актуальные инфекции Центральной Азии» Шымкент, 2022.
5. Юлдашева, Фируза. "«Совершенствование системы профилактических санитарно-противоэпидемических мероприятий на железнодорожном транспорте в условиях пандемии COVID-19.» Материалы международной научно-практической онлайн конференции «Коронавирусная инфекция: диагностика, лечение профилактика», посвященной году «Поддержки молодёжи и укрепления здоровья населения» Фергана, 2021.
6. Юлдашева, Фируза. "Социально-гигиенические аспекты изучения здоровья детей, родившихся с большим весом." Актуальные вопросы общественного здоровья и здравоохранения на уровне субъекта Российской Федерации Материалы всероссийской научно-практической конференции (с международным участием) Иркутск 2021г. стр. 405-411, 2021.
7. Юлдашева, Фируза. "ORGANIZATION OF WORK UNIVERSITIES DURING THE COVID 19 PANDEMIC." International Conference, San Francisco, California, USA, 2020.
8. Юлдашева, Фируза. "SOCIO-HYGIENIC STUDY OF THE HEALTH OF CHILDREN BORN WITH HIGH WEIGHT." (2018).
9. Юлдашева, Фируза, et al. "Факторы риска развития злокачественных новообразований у детей." Сборник научных трудов Республиканской научно-практической конференции "Профилактическая медицина: Гигиеническая наука и практика" Ташкент–2015г. С 87-89, 2015.
10. Юлдашева, Фируза, and Шахром Каримбаев. "Совершенствование объективности оценки качества знаний студентов." (2014).
11. Саломова, Ф. И., and Г. О. Тошматова. "Эпидемиология мастопатии и особенности заболеваемости женщин, страдающих мастопатией." Врач-аспирант 52.3.1 (2012): 222-228.
12. Toshmatova, Guzal. "Ways to optimize the formation of the principles of a healthy lifestyle of children." (2022).
13. Миррахимова, М. Х., Б. Т. Халматова, and Г. А. Тошматова. "Бронхиальная астма у детей: современный взгляд на проблему." (2019).
14. Toshmatova, Guzal Adilkhodjayevna. "Prevalence of mastopathy among women of Tashkent City." (2019).
15. Равшанова, М. З., and Г. А. Тошматова. "Влияние питание на здоровье школьников обучающихся в городских и сельских условия." Соғлом турмуш тарзи" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами/, 2023.
16. Тошматова, Гузал. Shaxar va qishloq sharoitida ta'lim olayotgan maktab o" quvchilari ovqatlanishini gigiyenik baholash. Diss. "Tibbiyotdagi zamonaviy ilmiy Tadqiqotlar: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar" Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya

Materiallari To'plami Termiz 201 bet 2022 yil 13 may, 2022.

17. Тошматова, Гузал. Qoraqalpogiston respublikasi homilador ayollarni ratsional ovqatlanishni sanitar gigiyenik baholash. Diss. "Tibbiyotdagi zamonaviy ilmiy Tadqiqotlar: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar" Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya Materiallari To'plami Termez 155-156 bet 2022 yil 13 may, 2022.

18. Тошматова, Гузал. Yosh sportchilarning ovqatlanish holatini gigiyenik baholash. Diss. "Yosh olimlar kunlari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani xalqaro ishtirok bilan tezislar to'plami 416-418 bet, 2022.

19. Саломова, Ф. И., Н. О. Ахмадалиева, and Г. О. Тошматова. "Шаҳар ва қишлоқ шароитида таълим олаётган ўқувчилар саломатлигига уларнинг овқатланишининг ва мактаб шароитининг аҳамияти." (2022).

20. Guzal, Toshmatova, Mirsagatova Mavluda, and Islamov Inomjon. "Modern approaches to rationalization of mealing of urban and rural school children in Uzbekistan." (2021).